



XALQ DEPUTATLARI QASHQADARYO VILOYAT KENGASHI QARORI

2023 - yil 29 - dekabr

VI-68-124-4-0-K/23

Qashqadaryo viloyati hokimligi

Qashqadaryo viloyatining 2024-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 99-moddasi, 2023-yil 25-dekabrda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2023-yil 25-dekabrda 01/30-2-10346-sonli xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O'zbekiston Respublikasining "2024-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq Qashqadaryo viloyati mahalliy budjetining 2024-yil uchun daromadlari **5481,4 mlrd so'm**, xarajatlari **5806,2 mlrd so'm** prognoz qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar **324,7 mlrd so'm** miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun Qashqadaryo viloyatini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2024-2026-yillarga maqsadli mo'ljallari **1-ilovaga** muvofiq, 2024-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi **2-ilovaga** muvofiq;

2024-yil uchun viloyatning viloyat mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari **3-**

ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun tumanlar va shaharlar budjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **4-ilovaga** muvofiq;

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Qashqadaryo viloyati bo'yicha G'aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

2024-yil uchun tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining daromadlari va xarajatlarining prognozi **5-ilovaga** muvofiq;

2024-yil uchun viloyat mahalliy budjetidan tuman va shahar mahalliy budjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **6-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman va shahar mahalliy budjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar kamaytirishga yo'l qo'yilmasligi Qonunda belgilab qo'yilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2024-yil uchun viloyatning viloyat budjeti zaxira jamg'armasi hajmlari **25,1 mlrd so'm** miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar budjetlarining 2024-yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida (jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan mablag'dan tashqari) 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Qashqadaryo viloyatining viloyat budjetining, tumanlar va shaharlar budjetlarini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg'armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

5. 2024-yil uchun viloyatning viloyat, tuman va shaharlar budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turishi lozim bo'lgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **7-ilovaga** muvofiq belgilansin.

6. O'zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2024-yilda xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag'lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo'yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

aylanmadan olinadigan soliq;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i;

jarimalar;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.

b) viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

yuridik shaxslarning foyda solig'i;

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushumlar;

davlat aktivlarini sotishdan tushumlar;

tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari), shuningdek mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, tegishincha o'tgan moliya yilining 1-oktabr holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan viloyat aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda daromadlar bo'yicha prognozning bajarilmagan qismi viloyat budjetiga respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi.

d) viloyat budjeti hamda tuman va shaharlar budjetlari o'rtasida taqsimlanadi:

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yig'imlar;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya

qilishdagi aksiz soliq.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi:

tegishli darajadagi mahalliy budjetlarga ajratiladigan soliqlarni va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan ushbu moddaning a, b, va d qismlarida ko'rsatilgan daromadlarni) hamda budjetlararo transfertlarni taqsimlashga;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq, benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz soliq hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarini tuman va shaharlar budjetlariga yo'naltirishga;

daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag'larning bir qismini tuman va shaharlar budjetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga;

Shuningdek, xalq deputatlari tuman va shaharlar Kengashlari tuman hamda shaharlarning ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlarida mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga haqli ekanligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

7. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (A.Qodirov), viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (B.Mahmadaliyev), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) tuman va shaharlar hokimliklari va mas'ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

8. Viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) tumanlar va shaharlar Davlat soliq inspeksiyalari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida

belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

solliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu solliqlarni o'z vaqtida budjetga undirilishi ustidan solliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun solliq va mol-mulk solliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, solliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu solliq to'lovlari bo'yicha solliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish;

aylanmadan solliq turi bo'yicha solliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining solliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy solliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral solliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda videomateriallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e'tibor qaratish;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining solliq bazasini oshirish;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi (J.Usmonov) bilan birgalikda viloyatda mavjud solliq to'lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan solliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlasin.

9. Viloyat Davlat solliq boshqarmasi (Sh.Imomov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish mintaqaviy inspeksiyasi hamda tumanlar va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo'yicha xatlovlar o'tkazish;

xatlov natijalari bo'yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni solliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karyerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining solliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatish topshirilsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan "marksheydrlik" xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo'yilsin.

10. Majburiy ijro byurovi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Poyonov) viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko'rib borishni ta'minlasin.

11. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Toshyev) bo'sh turgan obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Qashqadaryo viloyat hududiy boshqarmasi bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro'yxatga asosan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo'yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va videomateriallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo'ljallangan bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini "e-ijro auksion" maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

12. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Toshyev), viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov), viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (B.Mahmadaliyev) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budjetlarga o'tkazilishini ta'minlasin.

13. Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Sodiqov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda, ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralari ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'implarni budjetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatin.

14. Amu-Qashqadaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Siddiqov) va viloyat Davlat soliq boshqarmasi (Sh.Imomov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda viloyatda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan

foydalanganlik uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetlarga to'liq undirib olish choralarini ko'rsin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

15. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (Sh.Satvoldiyev), viloyat Yo'l harakati xavfsizligi boshqarmasi (A.Sadirov), Majburiy ijro byurosi viloyat hududiy boshqarmasi (O.Poyonov), hisoblangan boj, jarima va yig'implarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko'rib borsin.

16. Viloyat Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (F.Turumov) viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi va Sog'liqni saqlash bosh boshqarmalarining ichki audit xizmatlari bilan birgalikda:

budjet intizomiga qat'iy rioya etilishi ustidan doimiy monitoring ishlarini kuchaytirish;

o'tkazilgan nazorat tadbirlari yakuni bo'yicha kamomad va noqonuniy o'zlashtirishga yo'l qo'ygan soha rahbarlarining hisobotini har chorakda eshitib borilishini ta'minlasin.

17. Xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasiga:

mahalliy budjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi Kengash qarori loyhasini budjet qonunchiligiga to'liq rioya etgan holda ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o'rnatish, tavsiyalar berish va monitoring qilish;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etish va ushbu mablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

18. Viloyat, tuman va shaharlar hokimliklariga:

tuman va shaharlar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi"ga yo'naltirishni;

bunda, xalq deputatlari viloyat, tuman va shaharlar Kengashlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman va shaharlar hokimliklari huzuridagi jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etiladigan hokim yordamchilari budget jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishni tavsiya etish;

mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlar har chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borish topshirilsin.

19. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (A.Qodirov) tuman va shaharlar hokimliklari va tegishli boshqarmalar bilan birgalikda:

mahalliy budget daromad va xarajatlarining prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo'yicha xalq deputatlari viloyat Kengashiga har chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Mazkur qaror rasmiy gazetalar hamda veb-saytlarga joylashtirilsin.

21. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

22. Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining 2023-yil 30-dekabrda "Qashqadaryo viloyatining 2023-yilgi mahalliy budgetini tasdiqlash to'g'risida"ги VI-56-217-4-0-K/22-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

23. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budget, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi O.Ravshanov hamda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari A.Qodirov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



M.Azimov

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-68-124-4-0-K/23-son
qaroriga
1-ilova

**Qashqadaryo viloyatini 2023-yilda rivojlantirishning makroiqtisodiy
ko'rsatkichlari prognoz ko'rsatkichlari hamda**

2024-2026-yilga mo'ljallari

T/R	Ko'rsatkichlar	2023-yil uchun prognoz	Mo'ljal		
			2024-yil	2025-yil	2026-yil
1	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd so'm	59 986.0	71 841.0	82 516.0	96 371.0
2	Yalpi hududiy mahsulotning o'sish sur'ati, foizda	105.5	105.8	106.0	106.2
3	Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	107.6	108.5	108.6	108.6
4	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	103.8	104.0	104.1	104.1
5	Xizmatlarning o'sish sur'ati, foizda	109.0	114.0	114.3	114.5

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-68-124-4-0-K/23-son
qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun viloyat mahalliy budjeti daromadlari prognozi

T/R	Daromad turlari	ming soʻmda
1	Foyda soligʻi	377 284 000
2	Aylanmadan olinadigan soliq	145 196 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻi	2 103 393 000
4	Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari boʻyicha qatʻiy belgilangan soliq	32 609 000
5	Aksiz soligʻi-oxirgi isteʼmolchiga benzin, dizel yoqilgʻisi va gaz realizatsiyasi	439 523 000
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	439 403 000
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	179 989 000
8	Yuridik shaxslarning yer soligʻi	349 809 000
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer soligʻi	271 887 000
10	Yer qaʼridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	23 330 000
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	98 977 000
12	Davlat boji	149 442 000
13	Jarimalar	118 576 000
14	Ijara toʻlovi	2 785 000
15	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan Davlat budjetiga ajratmalar	1 841 000
16	Yigʻimlar	115 687 000
17	Xususiylashtirish	29 400 000
	JAMI	4 879 131 000
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz soligʻi tushumlaridan tegishli ravishda oʻtkazib beriladigan daromad	602 291 292
18	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	261 073 654
19	Mobil aloqa xizmati	105 161 001
20	Tamaki va alkogol mahsulotlari	236 056 637
	DAROMADLAR JAMI	5 481 422 292
21	Tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar	324 735 885
	HAMMASI	5 806 158 177

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-68-124-4-0-K/23-son
qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat budjetidan hududiy budjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdori

ming so'mda

T/R	Ko'rsatkichlar	Summa
	Viloyatning viloyat byudjetidan ajratiladigan mablag'lar jami	2 983 274 177,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 867 497 762,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	669 540 100,0
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	446 236 315,0
1	Maktabgacha va maktab ta'lim boshqarmasi	741 515 772,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	172 515 772,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	569 000 000,0
2	Oliy ta'lim, fan va inovatsiyalar boshqarmasi	178 490 970,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	178 490 970,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
3	Sog'liqni saqlash boshqarmasi	857 092 970,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	774 992 970,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	82 100 000,0
4	Madaniyat boshqarmasi	58 297 470,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	58 297 470,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
5	Yoshlar siyosati va sport boshqarmasi	65 600 807,0
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	65 600 807,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
6	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi	13 369 829,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 369 829,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
7	Qishloq xo'jaligi boshqarmasi	43 490 649,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	43 490 649,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
8	Suv xo'jaligi boshqarmasi	110 102 165,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	102 191 465,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	7 910 700,0
9	Energetika boshqarmasi	753 472,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	753 472,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
10	Transport boshqarmasi	3 938 800,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 938 800,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
11	Tabiat resurslari boshqarmasi	10 689 594,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	10 689 594,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
12	Turizm boshqarmasi	11 127 509,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 127 509,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
13	O'rmon xo'jaligi boshqarmasi	28 669 558,0
	<i>shu jumladan:</i>	

	joriy xarajatlar	28 669 558,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
14	Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi	13 058 433,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	13 058 433,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
15	Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish boshqarmasi	1 797 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 797 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
16	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	1 691 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 691 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
17	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik boshqarmasi	7 572 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	7 572 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
18	Qurilish boshqarmasi	1 718 884,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 718 884,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
19	Investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi	11 406 300,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 406 300,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
20	Raqamli texnologiyalar boshqarmasi	916 565,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	916 565,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

21	Adliya boshqarmasi	10 536 829,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	10 536 829,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
22	Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi	534 403 903,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	88 167 588,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
	Tuman va shahar mahalliy budjetlariga transfertlar	446 236 315,0
23	Soliq boshqarmasi	29 660 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	29 660 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
24	Viloyat hokimligi	68 024 697,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	57 495 297,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	10 529 400,0
25	Markaziy saylov komissiyasi	102 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	102 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
26	Arxiv ishi boshqarmasi	3 696 174,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 696 174,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
27	Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi	3 370 579,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	3 370 579,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
28	Yoshlar ishlari agentligi	2 862 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	2 862 000,0

	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
29	Oila va xotin-qizlar boshqarmasi	1 350 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 350 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
30	Boshqa tashkilotlar	11 508 239,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	11 508 239,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
31	Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi	288 739,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	288 739,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
32	Prezident ta'lim muassasalari agentligi	102 054 184,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	102 054 184,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
33	O'simliklar karantini va himoyasi agentligi	16 051 782,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	16 051 782,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
34	Kinematografiya agentligi	216 001,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	216 001,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
35	Badiiy akademiya	6 656 308,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	6 656 308,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
36	Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi	1 663 571,0

	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	1 663 571,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
37	Viloyat hokimligining zaxira jamg'armasi	25 119 187,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	25 119 187,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
38	Oliy Majlisi huzuridagi Nodavlat notijorat tashkilotlarini va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi	4 246 237,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	4 246 237,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	
39	Ijtimoiy ko'nikma markazlari	164 000,0
	<i>shu jumladan:</i>	
	joriy xarajatlar	164 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo'yilmalar	

Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-68-124-4-0-K/23-son qaroriga
4-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat,shahar va tumanlari budjetlari o'rtasida ajratmalar normativlari belgilanadigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar

(Foiz
hisobida) (4-ilova davomi)

T/R	Hududlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i		Aylanmadan soliq		Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i		Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq		Oxirigi iste'molchiga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiyasidan aksiz soliq		Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
		Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga
1	Qarshi shahri	X	100%	100%	X	X	100%	100%	X	X	100%	100%	X
2	Qarshi tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	20%	80%	X	100%
3	Mirishkor tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	35%	65%
4	G'uzor tumani	X	100%	100%	X	25%	75%	100%	X	100%	X	X	100%
5	Dehqonobod tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	X	100%	X	100%
6	Qamashi tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
7	Koson tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
8	Kitob tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
9	Muborak tumani	X	100%	100%	X	15%	85%	100%	X	100%	X	X	100%
10	Nishon tumani	X	100%	100%	X	10%	90%	100%	X	100%	X	X	100%
11	Kasbi tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
12	Chiroqchi tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
13	Shahrisabz tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
14	Yakkabog' tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
15	Shahrisabz shahri	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
16	Ko'kdala tumani	X	100%	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq		Yuridik shaxslarning yer solig'i		Jismoniy shaxslarning yer solig'i		Qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq		Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq		Davlat boji	
Tuman va shaharlar budgetiga	Viloyat budgetiga	Tuman va shaharlar budgetiga	Viloyat budgetiga	Tuman va shaharlar budgetiga	Viloyat budgetiga	Tuman va shaharlar budgetiga	Viloyat budgetiga	Tuman va shaharlar budgetiga	Viloyat budgetiga	Tuman va shaharlar budgetiga	Viloyat budgetiga
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	50%	50%
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X	100%	X

Jarimalar		Mahalliy yig'imlar		Xususiylashtirish		Davlat mulki bo'yicha ijara to'lovlari		Davlat unitar korxonalari dividend tushumlari	
Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga	Tuman va shaharlar budjetiga	Viloyat budjetiga
100%	X	0%	100%	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X
100%	X	100%	X	50%	50%	100%	X	100%	X

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-68-124-4-0-K/23-son
qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat, tuman va shaharlari budjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming soʻmda

T/R	Hududlar nomi	Daromad	Xarajat
	Jami	5 481 422 292	5 806 158 177
	<i>shundan</i>		
1	Viloyat budjeti	2 658 538 292,0	2 537 037 862
2	Qarshi shahri	279 912 113,0	279 912 113
3	Qarshi tumani	209 236 308,0	211 227 870
4	Mirishkor tumani	161 800 476,0	161 800 476
5	Gʻuzor tumani	222 000 304,0	222 000 304
6	Dehqonobod tumani	157 171 595,0	157 171 595
7	Qamashi tumani	156 942 057,0	226 308 155
8	Koson tumani	198 435 397,0	250 598 687
9	Kitob tumani	199 537 000,0	256 804 410
10	Muborak tumani	111 969 740,0	111 969 740
11	Nishon tumani	167 411 448,0	167 411 448
12	Kasbi tumani	135 337 932,0	188 340 887
13	Chiroqchi tumani	188 101 000,0	215 644 478
14	Shahrisabz tumani	157 294 602,0	234 373 866
15	Yakkabogʻ tumani	189 038 000,0	247 335 367
16	Shahrisabz shahri	166 242 028,0	188 444 719
17	Koʻkdala tumani	122 454 000,0	149 776 200

Izoh: 2024-yilgi yuqori budjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari 324 735 885,0 ming soʻm.

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-68-124-4-0-K/23-son
qaroriga
6-ilova

**Tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining 2024-yilgi yuqori budjetdan
ajratiladigan tartibga soluvchi bydjetlararo transfertlar miqdorlari**

ming soʻmda

T/R	Hududlar nomi	Summa
	Jami	446 236 315
	<i>shundan</i>	
1	Qarshi shahri	0
2	Qarshi tumani	1 991 562
3	Mirishkor tumani	0
4	Gʻuzor tumani	0
5	Dehqonobod tumani	0
6	Qamashi tumani	69 366 098
7	Koson tumani	52 163 290
8	Kitob tumani	57 267 410
9	Muborak tumani	0
10	Nishon tumani	0
11	Kasbi tumani	53 002 955
12	Chiroqchi tumani	27 543 478
13	Shahrisabz tumani	77 079 264
14	Yakkabogʻ tumani	58 297 367
15	Shahrisabz shahri	22 202 691
16	Koʻkdala tumani	27 322 200

Xalq deputatlari Qashqadaryo
viloyat Kengashining
2023-yil 29-dekabrda
VI-68-124-4-0-K/23-son
qaroriga
7-ilova

2024-yil uchun viloyatning viloyat, tuman va shaharlari budjetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam mablag'lar miqdori

ming so'mda

T/R	Hudud nomi	Miqdor
	Jami	25 000 000,0
	<i>shundan</i>	
1	Viloyat budjeti	7 297 706
2	Qarshi shahri	1 719 639
3	Qarshi tumani	1 338 969
4	Mirishkor tumani	781 396
5	G'uzor tumani	1 289 543
6	Dehqonobod tumani	995 328
7	Qamashi tumani	1 054 622
8	Koson tumani	1 505 453
9	Kitob tumani	1 508 184
10	Muborak tumani	649 065
11	Nishon tumani	929 005
12	Kasbi tumani	932 487
13	Chiroqchi tumani	904 374
14	Shahrisabz tumani	1 293 123
15	Yakkabog' tumani	1 212 508
16	Shahrisabz shahri	1 059 320
17	Ko'kdala tumani	529 279